

VII. ISTE'MOL BOZORI


2023 yil yanvar–mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 3 422,7 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 56,6 foizga ko'payib, 287,0 mlrd. so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,4 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 4,8 foizga o‘tib, 956,6 mlrd. so‘mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 27,9 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 2 179,1 mlrd. so‘m yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to‘g‘ri keldi 2022 yilning shu davriga nisbatan 1,4 foizga kamaygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 63,7 foizga teng bo‘ldi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi
(2023 yil yanvar–mart)




Chakana savdo - tovarlarni yetkazib berishda ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga bo'lgan tovar harakati jarayonidagi xo'jalik aloqalarining so'nggi zanjiri bo'lib hisoblanadi. Chakana savdoda moddiy resurslar muomala jarayonidan jamoa, yakka xoldagi, shaxsiy iste'mol sohasiga o'tadi, ya'ni iste'molchilarning mulki bo'lib qoladi. Bu jarayon oldi-sotdi orqali amalga oshiriladi, chunki iste'molchilar o'zlariga zarur tovarlarni o'zlarining pul daraomadlariga almashishadi. Bunda ishlab chiqarish va muomala jarayonining yangi sikli uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi, chunki ushbu xolatda tovarlar pulga aylanadi.

Nodavlat mulki 3 422,7 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri 28,3 foizni, G'ijduvon tumani 19,2 foizni, Qorako'l tumani 8,5 foizni, Buxoro tumani 7,5 foizni va Romitan tumani 6,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, Olot tumani 2,9 foizni, Kogon tumani 3,1 foizni va Qorovulbozor tumani 2,4 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi

2023 yil yanvar-mart, foiz hisobida



2023 yil yanvar-mart oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 56,6 foizga ko‘paydi. O‘z navbatida Peshko‘ (21,3 marta) va Buxoro (5,5 marta) tumanlarida eng yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etildi. Jondor (81,3 foiz) tumanida past o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 137,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 0,4 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 4,0 foizni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Buxoro shahri hisobiga to‘g‘ri keldi va 50,5 foizni tashkil etdi, G‘ijduvon tumani 7,7 foizni, Romitan tumani 8,2 foiz tashkil etgan bo‘lsa, Olot tumanida 1,9 foizi va Shofirkon tumanida 2,3 foizi eng past ulush ko‘rsatkichni qayd etdi.


Chakana tovar aylanmasi hududlar kesimida
(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

| | <i>Jami</i> | | <i>Aholi jon boshiga</i> | |
|-------------------------|-------------------|--|--------------------------|--|
| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> | <i>ming so‘m</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> |
| Viloyat bo‘yicha | 3 422,7 | 103,5 | 1 700,1 | 101,8 |
| Buxoro sh. | 967,2 | 105,4 | 3 337,4 | 103,5 |
| Kogon sh. | 120,3 | 102,2 | 1 886,3 | 100,1 |
| <i>tumanlar</i> | | | | |
| Buxoro | 256,4 | 101,1 | 1 463,3 | 99,5 |
| Vobkent | 127,1 | 101,7 | 870,1 | 100,1 |
| Jondor | 218,1 | 101,7 | 1 194,9 | 100,1 |
| Kogon | 107,5 | 113,9 | 1 298,4 | 111,8 |
| Olot | 98,5 | 101,5 | 956,5 | 100,1 |
| Peshko‘ | 118,6 | 102,2 | 918,3 | 100,5 |
| Romitan | 223,5 | 102,9 | 1 498,0 | 101,1 |
| Shofirkon | 155,1 | 104,5 | 840,7 | 103,1 |


| | <i>Jami</i> | | <i>Aholi jon boshiga</i> | |
|--------------|-------------------|--|--------------------------|--|
| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> | <i>ming so‘m</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> |
| Qorako‘l | 291,2 | 101,4 | 1 713,8 | 100,0 |
| Qorovulbozor | 81,4 | 103,3 | 4 155,5 | 100,7 |
| G‘ijduvon | 657,8 | 103,0 | 2 070,5 | 101,2 |

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga 1,8 foizga ko‘payib, 1700,1 ming so‘mni tashkil etdi (2022 yil yanvar-mart oylarida 1 480,8 ming so‘mni tashkil qilgan edi). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarni Qorovulbozor tumani (4 155,5 ming so‘m), Buxoro shahri (3 337,4 ming so‘m) va G‘ijduvon tumanida (2 070,5 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlarni esa Shofirkon tumanida (840,7 ming so‘m), Vobkent tumanida (870,1 ming so‘m) va Peshko‘ tumanida (918,3 ming so‘m) qayd etdi.

Umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi, (mln.so‘mda)



Hududlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi, foizda




Ovqatlanish tashkilotlari tovar aylanmasi aholi jon boshiga 68,4 ming so‘mni tashkil etdi. O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlari Buxoro shahri (239,7 ming so‘m) va Qorovulbozor tumani (229,5 ming so‘m) kuzatildi.

2023 yil yanvar–mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2206,6 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi.

Umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 11,6 foizga ko‘payishi kuzatilib, hajmi 756,1 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajimda katta ulushga ega bo‘lgan Buxoro shahri (28,6 foiz), Vobkent tumani (17,7 foiz), G‘ijduvon tumanida (22,1 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Shofirkon tumani (0,6 foiz), Olot tumanida (0,3 foiz) va Qorovulbozor tumani (0,5 foiz) ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

Buxoro viloyati hududlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,8 foizga oshib, 1 450,5 mlrd. soʻmga va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 65,7 foizni tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi hududlar kesimida

| | <i>mlrd. soʻm</i> | <i>Jamiga nisbatan, foizda</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> |
|-------------------------|-------------------|--------------------------------|--|
| Viloyat boʻyicha | 2 206,6 | 100,0 | 105,6 |
| Buxoro sh. | 630,1 | 28,6 | 143,6 |

| | <i>mlrd. so‘m</i> | <i>Jamiga nisbatan, foizda</i> | <i>2022 yil yanvar-martga nisbatan, foizda</i> |
|--------------|-------------------|--------------------------------|--|
| Kogon sh. | 39,0 | 1,8 | 64,5 |
| tumanlar | | | |
| Olot | 6,7 | 0,3 | 96,4 |
| Buxoro | 35,5 | 1,6 | 41,6 |
| Vobkent | 389,6 | 17,7 | 67,0 |
| G‘ijduvon | 487,4 | 22,1 | 197,5 |
| Kogon | 166,2 | 7,5 | 139,8 |
| Qorako‘l | 15,2 | 0,7 | 82,4 |
| Qorovulbozor | 11,1 | 0,5 | 64,0 |
| Peshko‘ | 179,6 | 8,1 | 2,1 m. |
| Romitan | 107,2 | 4,9 | 116,8 |
| Jondor | 126,3 | 5,7 | 56,7 |
| Shofirkon | 12,7 | 0,6 | 11,3 |

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

Chakana tovar aylanmasi – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

Umumiy ovqatlanish – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

Umumovqatlanish aylanmasi – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

Tovar zaxiralari – chakana savdo korxonalarini balansida turgan va kelgusida sotish uchun mo'ljallangan tovarlar qoldig'i.

Tovar aylanmasining tovar tuzilmasi – umumiy savdoda nisbiy ko'rsatkich – jamiga nisbatan foiz hisobidagi solishtirma og'irlik (ulush) yordamida aks etadigan, umumiy tovar aylanmasi hajmidagi alohida tovar va tovar guruhlari o'rtasidagi nisbat, ya'ni tovar aylanmasi tarkibi.

Ulgurji savdo – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

Iste'mol tovarlari – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.